Amin Umariy (1913-1942)



Amin Umariy (1913-1942)

Shoʻro davri oʻzbek adabiyotining koʻzga koʻringan vakili Amin Umariy 1913 yili Qoʻqonda xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. Otasi Umar aka eski maktablarda muallimlik qilgan. Onasi Nisobibi didli, zukko ayol hisoblangan. Shu sabab Amin Umariy oilada yaxshi tarbiya koʻrgan, xatli-savodli boʻlib voyaga yetgan. Uning bolaligi oʻlkada inqilobiy koʻtarilishlar avjga minayotgan davrga toʻgʻri kelgan.

U oʻrta maktabni tugatib, 1930 yilda Samarqand Davlat pedakademiyasiga oʻqishga kirib, uni 1935 yilda a'lo baholar bilan yakunlaydi. Bu yerda u H. Olimjon, Uygʻun, Oydin kabi iste'dodli adiblar bilan hamnafas boʻladi. 1937 yilda Samarqanddan Toshkentga koʻchib keladi va shu yili Oʻzbekiston Yozuvchilari a'zoligiga qabul qilinadi. Shoirning maktab yillarida boshlangan ijodi xuddi shu davrga kelib gullay boshlaydi. Uning «Salom, maktab!» ilk she'ri 1930 yilda, «Yangroq sadolar» nomli birinchi toʻplami esa 1932 yilda nashr etiladi. Toʻplamdagi koʻpgina she'rlarda oʻsha davr uchun dolzarb boʻlgan mavzular yetakchilik qiladi. Jumladan, «Qaynayotgan tseximiz» she'rida sanoat mavzui, «Bolshevik homiysi»da paxtakor dehqon mehnati va «Zarbachi erlar» she'rida ma'rifat mavzui oʻz aksini topadi.

1938 yilga kelib, Amin Umariyning «Davr tantanasi» nomli ikkinchi she'riy toʻplami yuzaga keladi. Mazkur toʻplamdagi she'rlar ancha puxta, mavzui jihatidan juda boy edi. Uning «Yoshlik» (1935) nomli toʻplami shoir ijodidagi koʻtarilishdan darak beradi. «Farzand» (1937), «Sadoqat» (1938), «Qoʻshiqlar», «Ijod bogʻida» kabi toʻplamlari ketma-ket yaratildi. Shoir bu yillarda Toshkent Davlat pedagogika institutida muallimlik qildi. «Guliston» jurnalida, Oʻzbekiston Davlat nashriyotida faollik koʻrsatdi, tarjimon va munaqqid sifatida qalam tebratdi.

Amin Umariy «She'rlar», «Bolalik qoʻshiqlari», «Ovozim», «Quyosh jarchisi» (1939—1941 yillar) kabi toʻplamlar yaratdi, bolalar shoiri sifatida «Bolalik qoʻshiqlari» (1938) kitobini chop ettirdi.

Amin Umariy urush yillarida yana ham jonbozlik koʻrsatdi. Uning «Qasamyod» (1942) nomli she'riy toʻplami oʻsha davrning jangovar ruhi bilan toʻla.

U dramaturg sifatida K. Yashin bilan birga «Hamza» (1941), Tuygʻun bilan birga «Qasos» dramalarini yozdi.

Nosir sifatida «Asad» (1932), «Qozon yoʻlida» (1938), «Toshotar» (1939) kabi hikoya va ocherklar toʻplamlarini yaratdi.

Shoir va dramaturg, nosir va tarjimon Amin Umariy avji ijodi qaynagan davrda — 1942 yil 14 noyabrda

Bekobod metallurgiya zavodi qurilishidan qaytgach, betoblikdan vafot etadi.

2023-09-09 14:41:21